

RASHIDUDDIN HAMADONIY QALAMIGA MANSUB “JOME’ AT TAVORIX” ASARI YOZILISH TARIXI VA O’ZIGA XOS JIHATLARI

Sotvoldiyev Farrux Muzaffarbek o’g’li
Stajor-o’qituvchi, Qo’qon davlat universiteti
Qo’qon, O’zbekiston
sotvoldiyevfarrux4@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17531153>

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ishida XIV asrning yirik davlat arbobi va tarixchi olimi Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy hayoti hamda ilmiy merosi, xususan, uning mashhur “Jome’ at tavorix” (“Tarixlar to’plami”) asarining yaratilish tarixi, nusxalarining taqdiri va ilmiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek Ilxoniylar davrida Fors diyorida faoliyat yuritgan Rashiduddin siyosiy mavqei, G’azonxon va O’ljaytu hukmronlik davrlaridagi faoliyati, shuningdek, uning vafotidan keyingi siyosiy beqarorlik oqibatida vayron etilgan “Rab’i Rashidiy” majmuasi haqida ma’lumotlar beradi.

Kalit so’zlar: Ilxoniylar, yahudiylar, G’azonxon, Vaqfnoma, O’ljaytu Sulton, Tajuddin Alishoh.

ABSTRACT

This research explores the life and scholarly legacy of the 14th-century statesman and historian Rashid al-Din Fazlullah Hamadani, with particular emphasis on the creation, transmission, and scholarly significance of his renowned work “Jāmi‘ al-Tawārīkh” (“Compendium of Chronicles”). It also provides an overview of Rashid al-Din’s political position and activities during the Ilkhanid period in Persia, especially under the reigns of Ghazan Khan and Öljaitü. Furthermore, the study discusses the political instability that followed his death, which led to the destruction of the Rab‘-i Rashidi complex he had founded.

Keywords: Ilkhanids, judaism, Ghazan Khan, Vaqfnama, Öljaitü Sultan, Taj al-Din Alishah.

Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy Fors diyorida hukmronlik qilgan Ilxoniylar sulolasi saroyida 20 yil davomida vazir lavozimida faoliyat yuritgan ilm va siyosat arbobi hisoblanadi. Uning qalamiga mansub “Jome’ at tavorix” (Tarixlar to’plami) tadqiqotchilar tomonidan “birinchi jahon tarixi” deya ta’riflanadi [1]. Ilxoniylarning sulolasi vakili G’azonxon (1295-1304) Rashiduddin salohiyatini to’g’ri ko’ra bilib, uni Sadruddin Savaji bilan birgalikda vazir qilib tayinlaydi. Bungacha u saroy tabib lavozimida ishlab kellar edi. Tahminan 1300-yilda hukmdor G’azonxon Rashiduddinga dunyo xalqlari tarixini o’z ichiga olgan asar yozishni buyuradi. Lekin asar bitishiga oz qolganda vafot etadi.

Asarda nomiga mos ravishda islom va forsiy o’lka tarixi bilangina cheklanib qolmasdan, mo’g’ul va turk turk xalqlari kelib chiqishi, tarixi, shuningdek franklar, yahudiylar, hindlar, xitoyliklar va boshqa xalqlar tarixi haqida mufasssal ma’lumotlarni taqdim etadi.

Rashiduddin Hamadoniy kelib chiqishi yahudiy bo’lib, ushbu xalq an’analari va dini asosida tarbiya topgan va o’ttiz yoshlarga yetganda islomni qabul qiladi. Asarda yahudiylar dini va tarixiga bag’ishlangan bo’limlar mavjudligi aynan shundandir [2, b. 118-125].

Baxtli tasodif bilan, Rashididdinning o’z qo’li bilan yozgan vaqfnoma hujjatining asl nusxasi saqlanib qolgan. U o’z asarlarining keyingi avlodlarga yetib borishini ta’minlash maqsadida, vaqf nizomiga qo’shimcha tarzda, ularni ko’chirib yozish uchun maxsus kotibxona

(nusxa ko'chiriluvchi xona) ham qo'shtirgan. Yuqorida aytilgan hujjatda xususan quyidagilar aytiladi:

“Men shu bilan vaqf boshlig'i (mutavalliy)ga quyidagi kamina yozgan kitoblarning har yili to'liq nusxalarini ko'chirtirishni shart qilib belgilayman: “Majmu'ayi Rashidiyya”, to'rtta kitobdan iborat bo'lib — “Tavzihat”, “Miftahut-tafasir”, “Sultaniyya” va “Latoif al-haqoyiq” — har biridan ikki nusxa, biri arab tilida, biri fors tilida; “Jome' at tavorix” — boshliq o'zi lozim deb bilgan hajmda, tezda shikast topmaydigan qilib tayyorlansin — ikki nusxa, biri arab tilida, biri fors tilida; “Asar va ahya” — ikki nusxa, biri arab tilida, biri fors tilida; “Bayonil bahoyiq” — ikki nusxa, biri arab tilida, biri fors tilida; “Taḥqiqul mahoyiq” — bir necha jildidan iborat bo'lib, bir nusxa arab tilida va bir nusxa fors tilida; shuningdek, “As'ila va ajviba va ta'liqat” — bu ham bir necha jildidan iborat — bir nusxa arab tilida va bir nusxa fors tilida ko'chirtirilsin.” [3]

Demak, ko'rinib turibdiki, Rashiduddin o'zi qurdirgan Tabrizdagi “Rab'I Rashidiy” majmuasida “Jome' at tavorix” nusxalarini ko'chirishni buyurgan. Bu nusxalardan atigi 4tasi omon qolgan xolos. Ulardan biri parcha-parcha holatda yetib kelgan Halili kolleksiyasida saqlanadigan arabcha versiyasi (bitta nusxaga oid ikkita parcha), yana boshqasi Shotlandiyaning Edinburg universiteti kutubxonasida saqlanadi. Bu qo'lyozma 1314-yilga daxldordir. Yana 3ta 1314-1317-yillarda ko'chirilgan fors tilidagi qo'lyozma parchalari esa Turkiyaning To'pqopi muzeyida saqlanadi. Tabiiyki savol tug'iladi: Rashiduddinning katta say-harakatlari bilan “Rab'i Rashidiy”da har yili “Jome' at tavorix” nusxalari ko'chirilgan bo'lsa-yu, nega atigi to'rt nusxasi bugungacha saqlanib qoldi?

U qanchalik ehtiyotkor zukko siyosatchi bo'lmasin, Ilxoniylar saroyida vazir va qo'mondonlarning mansab kursisi har daqiqa xavf ostida qolishi mumkin bo'lib, eng nostabil lavozimlardan edi. Rashiduddin O'ljaytu (1304-1316) davrida boshqa bir vazir Tajuddin Alishoh bilan nizoga borib qolishi keyinchalik o'ziga qimmatga tushdi. Alishoh va uning tarafdorlar unga bir necha marta fitna qo'zg'ashdi va Abu Saidxon (1316-1335) davriga kelib unga nisbatan ayblovlar kuchayib, bu narsani uning o'limi bilan yakun topdi. Natijada uning molk-mulki musodara qilinib, “Rab'i Rashidiy” vayron qilindi [4, b. 201]. Aynan shu sababdan u qoldirgan ulkan ilmiy merosdan katta qismi yo'q bo'lib ketdi.

Shu bilan birga asarning keyinchalik ko'chirilgan nusxalari han dunyo bo'ylab muzey va kutubxonalarda saqlanmoqda. Jumladan O'zbekiston Fanlar akademiyasida, Sankt Peterburgdagi “Saltikov-Shedrin” xalq kutubxonasida va Osiyo xalqlari institutida, Londondagi Britaniya muzeyida, Tehron muzeyida, Parijdagi Milliy kutubxonada fors tilidagi original qo'lyozmadan XV-XVII asrlar oralig'chirilgan nusxalari saqlanadi. Arab tilida “Rab'I Rashidiy” yozilgan nusxasining birinchi jildi topilgan emas [5, b. 8]

Asarning umumiy muallifi Rashiduddin Hamadoniy ekaniga shubha yo'q. Lekin tadqiqotchilar bunday katta hajmdagi ishni jamoaviy mehnat sifatida ko'rsatishadi [5, b. 96-97]. 1304-yilda asarning xomaki nusxasi deyarli tayyor bo'lganda, G'azonxon vafot etib, o'rniga ukasi O'ljaytu Muhammad Xudobanda taxtga chiqqach Rashiduddinga huddi akasidek hurmat ko'rsatdi va lavozimida qoldirdi. Shuningdek “Jome' at tavorix” birinchi jildini G'azonxonga bag'ishlashni buyurdi. 1305-1306-yillarga borib asar ichki ma'lumotlari tugallanib, 1310-1311-yillarda ishning barcha kamchiliklari tuzatib bo'lindi. Yuqorida keltirilgan Rashiduddin Hamadoniy qo'li bilan yozilgan vaqfnomada 1314-yil mart oyidan (713-hijriy, Zulhijja) asardan nusxa ko'chirish boshlangani haqida bilib olish mumkin.

Ilxoniylardan G'azonxon Mo'g'ulistondagi Ulug' Xoqonlar (keyinchalik Yuan sulolasi) bilan yaxshi munosabatlar o'rnatgan. Buning ortidan o'rtada doimiy elchilik aloqalari amalga oshgan edi. Rashiduddin asarning birinchi jildida hukmdorning o'zidan tashqari, Yuan elchisi Bolad Cheng-siangCheng-siangni ham e'tirof etadi. Sababi Boladning o'zi mo'g'ul xalqi tarixi bo'yicha kuchli mutaxassis bo'lishi bilan birga Rashiduddinga juda maxfiy saqlanadigan mo'g'ullar tarixiga oid yozuvlarni ko'zdan kechirish imkoniyatini yaratib bergan [7, b. 8].

Xulosa qilib aytganda Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy o'z davrining yirik siyosiy va ilmiy shaxslaridan biri bo'lib, u nafaqat Ilxoniylar davlatida yigirma yil vazirlik qilgan, balki dunyo tarixini yagona asarda mujassamlashtirgan tarixshunos sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. "Jome' at tavorix" asari mazmunan o'z davrida mavjud bo'lgan barcha yirik sivilizatsiyalar va xalqlar tarixini qamrab olganligi bilan o'ziga xos universallikka ega.

Shunday qilib, Rashiduddin Hamadoniy o'z faoliyati bilan islom siyosiy tafakkuri tarixida Nizomulmulkdan keyingi eng yirik davlat arbobi va va ilm darg'alaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning merosi o'rta asrlar musulmon sivilizatsiyasining intellektual rivojida muhim burilish yasagan, ilm va siyosat uyg'unligi g'oyasining amaliy ifodasiga aylangan. Bugungi ilmiy tafakkur uchun esa u tarixni faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki insoniyat ma'naviy o'sishining izchil jarayoni sifatida ko'rish zarurligini eslatib turuvchi timsoldir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Charles Melville. 2008. Jami' at tawarikh. Encyclopædia Iranica online. Retrieved November 2, 2025 from <https://www.iranicaonline.org/articles/jame-al-tawarik/>
2. Walter Fischer. 1968. Jews in the Economic and Political Life of Mediaeval Islam. London: The Royal asiatic society for Great Britain and Ireland.
3. Vaqfnomayi Rab'i Rashidiy (MujatabaMinaviy, Iraj Afshar tahriri). 1977. Tehron: Anjumani Asori Milliy.
4. Xondamir. 1626. Habib as siyar. Vol 3. Toronto: McGill University library.
5. Shagdaryn Bira. 2002. Mongolian Historical Writing from 1200 to 1700, tr. John R. Kreuger, 2nd ed., rev. and updated by the author, Bellingham.
6. Rashid ad Din Hamadani. 1998. Jami at tavarikh (Compendium of chronicles), (Trans. Wheeler M. Thackston). Cambridge: Harvard 7 press.
7. Rashid ad Din Hamadani. 1971. The successors of Genghiz Khan (Trans. John A. Boyle). New York: Columbia University press.